



M-1^A NASOS STANSIYASI HOZIRGI HOLATINING TAHLILI

o'qituvchi: Mamarasulov Sobir Raxmonqul o'g'li

Talaba: Abdurasulov Bobur Zulfiqor o'g'li

Talaba: Tursunov Furqat Farhod o'g'li

Talaba: To'rayev Husan G'anisher o'g'li

Annotatsiya

Ushbu maqolada Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasiga qarashli M-1^A nasos stansiyasining hozirgi holati va undagi jihozlar va qurilmalarning holati, nasos qurilmasining ish prinsiplari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Aylanma kanal, nasos stansiya, nasos agregati, dvigatel, suv sarfi, yuk ko'tarish krani.

Аннотация

В статье представлена информация о текущем состоянии насосной станции М-1^А Каршинского управления по эксплуатации магистрального канала, состоянии ее оборудования и устройств, а также принципах работы насосного агрегата.

Ключевые слова: Циркуляционный канал, насосная станция, насосный агрегат, двигатель, расход воды, подъемный кран.

Abstract

This article provides information on the current status of the M-1^A pumping station under the Karshi Main Canal Operation Department, the condition of its equipment and devices, and the operating principles of the pumping unit.

Keywords: Circulation channel, pumping station, pumping unit, engine, water consumption, lifting crane.



Kirish

M-1^A nasos stansiyasi Nishon tumani Talimarjon shaharchasi hududida joylashgan. Nasos stansiya Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasiga qarashli 6-7 nasos kaskadlari orasidagi aylanma kanaldan suv oladi. Aylanma kanalning umumiy uzunligi 21,5 km ni tashkil etadi, kanalning maksimal suv o'tkazish qobiliyati 350 m³/sek ni tashkil etadi.

Nasos stansiyasining holati

M-1^A nasos stansiyasining mashinalar zalida 3 ta nasos agregati joylashgan, ulardan 3 ta nasos agregati mavjud bo'lib 2(ikki) ta nasos agregati 1990- yilda qurilib ishga tushirilgan, bittasi esa 2009-yilda qurilgan bo'lib suv sarfi $Q=300$ l/s ni tashkil etadi. Nasos stansiyani "Gidrostroy" trestiga qarashli 9-K.M.B quruvchi tashkilot tomonidan qurilgan bo'lib, nasos stansiyaning balans qiymati 53,282 ming so'mni tashkil etgan. Nasos stansiyasining mashinalar zalidagi nasos agregati parrakli nasos tarkibiga kiruvchi ikki tomonlama suv kiruvchi markazdan qochma D3200-33-2 markali nasos hisoblanadi, nasos agregatini tayyorlagan zavod "Suma" zavodi. Nasos agregatining suvni yuqoriga ko'tarib berish balandligi $H_{geom}=21,7$ metrni tashkil etadi, $H_{monom}=26$ m hisoblanadi. Har bir nasos agregatining unumdorligi $Q=0,6$ m³/sek, umumiy suv chiqarish qobiliyati $Q=1,2$ m³/ sek ni tashkil qiladi. Nasos agregatlari uchun bitta vakuum nasos o'rnatilgan bo'lib, maqsadi nasosdagi havoni chiqarish va nasos korpusini to'liq suvga to'ldirishdan iborat. Mashinalar zalida bitta ko'priqli kran joylashgan bo'lib asosiy yuk ko'tarish qobiliyati 3,2 tonna, eni 6 metrni tashkil etadi. Elektrodvigatel quvvati 160 kw, markasi esa A 104-8/4 AM, dvigatelning bir minutda aylanishlar soni $n=735$ ayl/min. Nasos agregatlari bir biriga parallel holatda loyihalangan va ular bitta quvurga ulangan, bosimli quvurning diametri 1000 mm, uzunligi 1240 metrni tashkil etadi. Nasos agregatlari yordamida 3000 ming gektar maydon sug'oriladi, suv oluvchilar "INDORAMA" hisoblanadi.



1.1-rasm. M-1^A nasos stansiyasining kerakli ko'rsatkichlari



1.2-rasm. M-1^A nasos stansiyasi

Iqlimi

Iqlimi quruq. O'rtacha harorat 19 °C. Eng issiq oy iyul 34 °C, eng sovuq oy esa yanvar 0 °C. O'rtacha yog'ingarchilik yiliga 389 millimetrni tashkil qiladi. Eng yomg'irli oy — mart, yomg'ir 87 millimetr, eng quruq oy — iyul 1 millimetr tashkil etadi.



Xulosa

M-1^A nasos stansiyasi hozirgi vaqtda ishchi holatda, faqat hududga vegetatsiya davrida suv talab qilingan vaqtda nasos agregatlari ishga tushiriladi, aylanma kanalning loyqalik darajasi yuqori hisobiga nasos agregatlarining oldida ya'ni avankamerada loyqa tinib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Sh.M.Musayev “Nasos va nasos stansiyalar” Jizzax 2020-yil.
- 2.Bazarov Dilshod Rayimovich, Xidirov San‘atjon Qo‘chqorovich, Norqulov Behzod Eshmirzayevich, Vohidov Oybek Farhodjon o‘g‘li, Artikbekova Fotima Quchkarovna “Nasos stansiyalarini loyihalash va nasos qurilmalarini sinash” Toshkent 2020-yil
- 3.M.Mamajonov, A.Hakimov, T.Majidov, B.O‘ralov
“Nasos va nasos stansiyalaridan amaliy mashg‘ulotlar”.Andijon 2005- yil
- 4.M.M.Muxammadiyev, B.U.Urishev. Nasos stansiyalarini loyihalash. O‘quv qo‘llanma. T., TDTU., 1998.
- 5.Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasi ma’lumotlaridan foydalanilgan.

Internet resurslari

www.ziyonet.uz.

www.edu.uz.

www.ziyo.net